



## SHAHRISABZ DAVLAT MUZEY QO‘RIQXONASI RESTAVRATSIYA FAOLIYATIGA OID AYRIM MANBALAR

**Olimov Ulug‘bek Nabi og‘li,**  
*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi  
QQXDM mustaqil tadqiqotchisi,  
Shahrisabz davlat muzey qo‘riqxonasi katta ilmiy xodimi.*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.19603935>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Shahrisabz davlat muzey qo‘riqxonasining restavratsiya laboratoriyasida amalga oshirilgan konservatsiya va restavratsiyaga oid faoliyati va ayrim ashyolar xususida so‘z yuritiladi. 2024-2026 yillar boshida olib borilgan amaliy natijalar tahlili, shuningdek pedagogik faoliyatda amliy jarayonlarning mohiyati haqida qisqacha bayon qilinadi.

**Kalit so‘z.** Muzey ashyosi, konservatsiya, restavratsiya, Seladon, arxeologik qazishma, sopol va chinni buyumlar.

**Annotation.** This article discusses the conservation and restoration activities carried out in the restoration laboratory of the Shakhrisabz State Museum-Reserve, as well as certain artifacts. It also provides a brief analysis of the practical results obtained in early 2024–2026, along with an overview of the significance of practical processes in pedagogical activity.

**Keywords:** museum artifact, conservation, restoration, celadon, archaeological excavation, ceramic and porcelain objects.

Bugungi kunda mamlakatimizda muzeylar faoliyatini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Mamlakatimiz prizedenti Shavkat Mirziyoyev birgina poytaxtning 30 ta muzeylarida saqlanayotgan san‘at ashyolari kolleksiyasi 1 milliondan oshiqqligini, birgina san‘at muzeyida 100 ming kolleksiyadan 97 mingi podvallarda saqlanayotganligini ta‘kidlab, ularni keng jamoatchilikga namoyish qilish maqsadida yangi muzeylar barpo qilinayotganligini ta‘kilagan edi [1, b.1]. Bu boradagi islohotlar Qashqadaryo muzeylarida ham o‘zining samarasini ko‘rsatib, muzey ashyolarini to‘plash, saqlash, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilish vazifasida samarali faoliyat olib bormoqda.

Xususan Shahrisabz davlat muzey qo‘riqxonasida 2024-yilda restavratsiya ustaxonasi - laboratoriyasi tashkil qilinib birmuncha ijobiy faoliyat kasb etdi. 2025-yil davomida laboratoriyada 4 nafar kadrlar jalb qilindi hamda ularning ayrimlari malaka oshirish kurslarinii o‘tadi. Natijada bugungi kunga kelib muzey-qo‘riqxonada fondiga tegishli bo‘lgan 30 ga yaqin ashyolarning restavratsiyasi, mulyajlarini yaratish ishlari amalga oshirildi.

Bundan tashqari Milliy universitet arxeologiya fakulteti va muzey mutaxassislari ishtirok etayotagan Janubiy O‘zbekiston arxeologik yodgorliklarini muzeylashtirish granti doirasida kelib tushgan 300 dan ortiq ashyolar o‘rganilinib, ularning ayrimlari ustida restavratsion faoliyatlar ham olib borilmoqda. Kesh hududini o‘rganish natijalarida antik davrga oid xum bo‘laklari topilib muzey fondiga ilmiy yordamchi material sifatida qabul qilingan bo‘lib, uning ustida



konservatsion jarayonlar davom etmoqda. U 43 ta bo‘lakdan iborat xisoblanadi. Mazkur ashyoning yillar davomida yig‘ilgan chang va tuz (NaCl) qoldiqlaridan tozalash hamda materealdan namlikni quritish ishlari davomiy olib borilmoqda.

Qiyosiy tahlil qilinsa bu turdagi restavratsiya qilingan ashyolardan Antik davr ashyolari muzey fondida davomiy mavjud bo‘lib ular, qadimgi Keshning Sangirtepa, Uzunqir, Podoyotoqtepa va boshqa yodgorliklaridan topilgan arxeologik ashyolar [2, B.5], qadimgi Keshning 2700 yillik tarixiga guvoh buyumlar hisoblanadi.

Mazkur laboratoriya nafaqat muzey mutaxassislari balki yetishib kelayotgan yosh avlod vakillari qiziqishiga ham sabab bo‘lmoqda. Bu borada Shahrisabz davlat Pedagogika instituti bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan talabalar amaliyoti jarayonida ularga restavratsiya qilish metodologiyalari haqida turli o‘quv-amaliy seminarlar, treninglar ham tashkil qilib kelinmoqda. Tadqiqotchilar xulosalariga ko‘ra har bir pedagogqanday qobiliyatlarga ega bo‘lishi va gnostic malakalar, konstruktiv malakalar, kommunikativlik, tashkiloychilik malakalrini egallashda pedagogik amaliyot muhim ahamiyatga egadir [3. B.2].

Muzey kolleksiyalarining restavratsiya qilingan ashyolari orasida o‘rta asrlarga oid chinni buyumlari ham mavjud bo‘lib, ular ikki turga bo‘linadi. Birinchisi Xitoy chinni buyumlari va ular Buyuk Ipak Yo‘li orqali mamlakat hududiga kirib kelgan (Seladon). Ikkinchisi esa mahalliy chinni buyumlar bo‘lib, kulol aynan xitoy chinilariga o‘xshatib yaratishga intilgan (ular asosan chinni kosalar). Mazkur ashyolar 1996-yilgi Shahrisabz tarixiy markazidagi arxeologik qazishmalar natijasida topib o‘rganilgan [4, b.17]. Bu ashyolar sobiq Amir Temur nomli moddiy madaniyat tarixi muzeyining muzey 2011-yillargacha to‘plangan kolleksiyasida saqlangan bo‘lib [5, b.24], chinni kosalar va xitoy selodoni ilgari PVA nomli yelim yordamida mavjud qismlar restavratsiya qilinganligi, uning eskirishi natijasida yopishtirilgan qismlari ajralib ketganligi aniqlandi. Restavratsiya qilish jarayonida esa mazkur qatlam olib tashlanib, uning o‘rniga sianokrilayt tarkibli yopishtiruvchi vositadan foydalanildi. Mavjud bo‘lmagan qismlari esa gips qayta yordamida tiklanib, moybo‘yoq yordamida o‘simliksimon tasvirlar kombinatsiyalandi.

Bundan tashqari 2016 yilda Shahrisabzning tarixiy markazi – sayrgoh hududa katta shaharsozlik ishlari amalga oshirilgan bo‘lib [6, b.35] natijada topilgan ayrim katta xum bo‘laklari, sirlangan kosa, sopol ko‘za, zardushtiylik diniga oid isiriqdon va boshqa shu kabi arxeologik ashyolarning ba‘zilari ham tiklandi. 10 ga yaqin ashyolarning mulyajlari yaratilini b kelinmoqda. Xulosa o‘rnida aytish joizki muzey-qo‘riqxonada faoliyatida restavratsiya laboratoriyalaridan foydalanish keng ko‘lamda soha rivojiga o‘z hissasini qo‘shadi. Vaholangki muzeylarning moddiy-ma’naviy boylklarni saqlashdagi roli mana shu restavratsiya va konservatsiya jarayonlarida namoyon bo‘ladi. Shahrisabz muzeyi ham bu jarayonga o‘z hissasini qo‘shayotganligi mamlakat madaniy merosini uzoq yillar saqlash vazifasiga ma’suliyatli tarzda ish olib borayotganligini ifodalaydi. Bu maskanda bugungi



kunda turli davrlarga oid kulolchilik buyumlarini tiklash ishlari olib borilmoqda. Quyida mazkur ashyolarning texnik-tipologik ma’lumotlari jadvali keltirib o‘tiladi:

<b>№</b>	<b>Muzey ashyosining nomi</b>	<b>Kirimlar itobidagi tartib raqami</b>	<b>O‘lchamlari</b>	<b>Jarayonga qisqacha izoh</b>
1	Uch baldoqli xumcha	KP 1151	Bo‘yi 30.5 sm. Og‘iz diametri 16.5-17 sm	Ashyo tozalandi, mustahkamlandi, butlandi, yo‘q qismlari tiklandi, fotofiksatsiyalandi.
2	Sopol k‘zacha	Ilmiy yordamchi matereal	Balandlik 5 sm, ost qismi diametri 6.5 sm, faqat ostki qismi saqlangan.	Ashyo tozalandi, skotch yordamida muhofazalandi, yo‘q qismlari tiklandi, fotofiksatsiyalandi.
3	Ko‘za	KP 1939	Bo‘yi 25 sm atrofida, eni 17 sm atrofida, ost diametri 8.5 sm. Og‘iz qismi siniq taxminan 8.5 sm atrofida	Ashyo tozalandi, skotch yordamida muhofazalandi, yo‘q qismlari tiklandi, fotofiksatsiyalandi.
4	Sirlangan sopol idish bo‘lagi	Ilmiy yordamchi material	Bo‘yi 19.5 sm, eni 9 sm.	Ashyo tozalandi, skotch yordamida muhofazalandi, yo‘q qismlari tiklandi, fotofiksatsiyalandi.
5	Simob ko‘zacha	Ilmiy yordamchi matereal	Balandligi 12.5sm.	Ashyo tozalandi, skotch yordamida muhofazalandi, yo‘q qismlari tiklandi, fotofiksatsiyalandi.
6	Sopol piyola	KP-1893	H=5 sm atrofida, Ost D=4.5 sm atrofida.	Sayrgoh 2014 yil topilgan mazkur ashyo gips yordamida mulyaji yaratilib, moybo‘yoqda rang berildi



7	Sopol idishcha	KP-1217	H=8 sm atrofida, Ost D=3.5 sm atrofida.	Mazkur idishchanning o'giz qismi va dasta qismi siniq xolatda. Gips yordamida mulyaji yaratildi
8	Sopol piyola	KP-1893	H=5 sm atrofida, Ost D=4.5 sm atrofida.	Sayrgoh 2014 yil topilgan mazkur ashyo gips yordamida mulyaji yaratilib, moybo'yoqda rang berildi.
9	Sopol idishcha	KP-1217	H=8 sm atrofida, Ost D=3.5 sm atrofida.	Mazkur idishchanning o'giz qismi va dasta qismi siniq xolatda. Gips yordamida mulyaji yaratildi.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, mamlakatimiz muzeylari xususan Qashqadaryoda ham Yangi O'zbekistonning keng imkoniyatlari yuzaga chiqmoqda. Bu borada ayniqsa yosh avlod o'z bilimi va sohaga qo'shib borayotgan mehnati muzeylar tarqqiyotiga ijobiy xizmat qilmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Toshkent Milliy muzeyiga tamal toshi qo'yilishidagi nutqi / Xalq So'zi. 28.08.2025 yildagi № 177 (9072) son. <https://press.natlib.uz/ru/editions/132501> (Murojaat qilingan sana 19.03.2026.)
2. Шахрисбаз-минг йиллар мероси. Муаллиф жамоаси. Маъсул муҳаррир А.С.Сагдуллаев. – Тошкент: 2022. - В. 89.
3. Siddiqov B.S. Mehmonaliyev Sh.N. Pedagogik amaliyotning bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik faoliyatida tutgan o'rni / Academic Reserch in Educational Scinces. Volume 3 [ISSUE 1] 2022. - В. 7 <https://cyberleninka.ru/article/n/pedagogik-amaliyotning-bo-lajak-o-qituvchining-kasbiy-tayyorgarlik-faoliyatida-tutgan-o-rni/viewer> (Murojaat qilingan sana 19.03.2026.)
4. Сулейманов Р.Х. Раимкулов А.А. и др. Отчет Шахрисабзкого отряда о работах по Археологическому надзору на комплексах Ак-Сарай и Дорус-Сиادات. (Архив ИА АНРУз. Ф.3, О.1, Д. 113) - С. 37.
5. Н. Хушвақов. Шахрисабз тарихи музейи // Мозийдан Садо. 1-2 (49-50). 2011. – Т.: - Б. 24.
6. Равшанов П., Хушвақов Н.О. “Қашқадарё тарихига саёҳат”. – Тошкент: “Илм-зиё-заковат”, 2020. - Б. 272.